IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: VI18984132

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
"O'ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI"
AKSIYADORLIK JAMIYATI
100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
"NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN"
42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Web site: www.uzbekistonmet.uz

**2025-yil 5-dekabr** **01-03-18/8628-son**

**"MEXMASh" MChJ rahbari**
**Ahadov Adham Akramovichga**

Sizning 2025-yil 26-noyabrdagi 551/25-raqam bilan ro'yxatga olingan murojaatingiz hamda 272-sonl xatingiz iyuzasidan quyidagilar ma'lum qilinadi.

Murojaatga muvofiq Namangan shahri, Davlatobod tumani, "Yuqori Rovuston" MFY, Do'stlik ko'chasida joylashgan 110/10 kV kuchlanishdagi "Transformatornaya" podstantsiyasini ko'chirish masalasi mutaxassislar tomonidan atroflicha o'rganib chiqildi.

Modernizatsiya ishlari podstantsiya joylashgan mavjud maydon hamda unga birikgan nafaqat "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ, balkim "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning Namangan hududiy filiali va turli toifadagi iste'molchilarga tegishli bo'lgan elektr tarmoqlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Mazkur podstantsiyani ko'chirilishi unga ulangan tarmoqlar uchun ham yangi er maydonlarini ajratish hamda o'zgargan maydondagi muhandislik kommunikatsiyalarni (masalan: suv, oqova, gaz, elektr va hokazo) ham egalari bilan kelishgan holda loyihalashtirish va qayta qurish uchun qo'shimcha xarajatlarni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-iyundagi 338-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalari" ning 92-bandiga muvofiq ko'chirish ishlari tashabbuskor mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, podstantsiyani ko'chirish bo'yicha loyihalashtirish va ishlarni amalga oshirish barcha manfaatdorlar bilan kelishilgan takliflarni hisobga olgan holda, o'rnatilgan tartibda bajarilishi lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda podstantsiya ko'chirilishi har jihatdan Aksiyadorlik jamiyatimiz uchun maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi.

Masalani joyida ko'rib chiqish dalolatnomasi ilova qilinadi – 2 varaqda.

**Boshqaruv raisining**
**birinchi o'rinbosari**
**S. Artikov**

Baj: ETEUQB. Tel:71-236-60-86

Далолатнома
(мурожаатни ўрганиш натижаси)
бўйича

2025 йил 2-декабрь  Наманган ш.

Бизлар ким, ушбу далолатнома тузиб имзо чекувчилар "Ўзэнергоинспекция" Наманган ҳудудий бўлими мутахассиси Н.Мамадбоев, "Наманган ҲЭТ" филиали бош муҳандиси Б.Негматуллаев, бош муҳандис ўринбосари И.Мухтаржонов, юрисконсульт Б.Маҳкамов ва "Маҳалла" МФЙ вакили Р.Қодиров, "Маҳалла" МФЙнинг "Ўзбекистон миллий электр тармоқлари" АЖга ёзган мурожаат хатига тегишли ҳолда ўрганиб чиқилди.

Мурожаатда 110/10 кв. "Гидромелиоративная" подстанциясини "Маҳалла" МФЙнинг "Дўстлик" кўчаси, 6-уйда жойлашган мос ер майдонига электр тармоқ эвазига кўчириб беришларини сўраганлар.

"Гидромелиоративная" 110/10 кв. подстанция 1973 йилда қуриб битказилган бўлиб, Наманган шаҳридаги маиший истеъмолчилардан тортиб барча идора, саноат ва халқ хўжалигидаги объектлар, жумладан "Наманган" халқаро аэропортини электр-энергия билан таъминловчи стратегик иншоот ҳисоб-ланади.

Стратегик объект хисобланган "Трансфор-
маторная" подстанциясини бошқа жойга
кўчириш масаласи тегишли тартиб ва уму-
далолатга асосан, алоқадор хужжатлар-
ни расмийлаштирган ҳолда, кўчиришга доир
масалалар муносабати ҳал қилин-
ган ҳолда амалга оширилиши мақ-
ул.

Далолатнома иштирокчиларга
учта нусхада тузилди, қўшимча ва
эътирозлар бўлмади.

Далолатнома тузувчилар:

"Ўзэнергоинспекция"
Наманган худудий
бўлими мутахассиси — М. Мамадаев

Бош муҳандис — Б. Негматуллаев

Бош муҳандис
ўринбосари — И. Муллажонов

Юрисконсульт — Б. Мамажонов

"Наманган" МЧЖ
вакили — Г. Қодиров.

**Ягона миллий тизим орқали юборилган жўнатмалар учун квитанция**

UZPOST

Жўнатма рақами: EHM15707121

Регистрация рақами:

Жўнатилган вақт: 2025-12-11

Кимга: Ахадов Адхам Акрамович

Қаерга: “Mingchinor” MFY, Oromgoh ko‘chasi, 27-uy